
“AYOLLAR DAFTARI”DAGI 30 NAFAR XOTIN-QIZLARGA TIKUV MASHINALARI BERILDI



Qo'shtepa tumanida ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarning turmush sharoitlarini yaxshilash, ularning iqtisodiy jihatdan oyoqqa turishi uchun imkoniyatlar yaratish, jamiyatdagi o'rnini oshirish hamda mavjud muammolarini hal etish maqsadida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.



Xususan, bugun tuman hokimi I.Novikov va sektor rahbarlari, shuningdek mas'ullar ishtirokida “Ayollar daftari”ning 4-bosqichiga olingan 30 nafar xotin-qizlarga subsidiyaga tikuv mashinalari topshirildi. Ushbu tikuv mashinalari “Ayollar daftari” jamg'arma mablag'lari hisobidan 30 nafar ayollarni bandligini ta'minlash maqsadida berildi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2023-10-25 13:49:13